

MILLIY IQTISODIYOTDA INVESTITSIYALAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATIGA TA'SIRI SAMARADORLIGINING QIYOSIY TAHLILI

Mavlonberdiyev Otabek Turabekovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10966721>

Annotatsiya. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, jadal iqtisodiy o‘shish sur’atlarini saqlab qolish, 2030 yilgacha bo‘lgan muddatda mamlakatimizni innovatsion jihatdan taraqqiy etgan kuchli elliklik mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur holatlarning barchasi iqtisodiy o‘shishni ta’minlash maqsadida xorijiy investitsiyalar masalalariga alohida yondashuvni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish, investitsion muhitni yaxshilash masalalari o‘rganilgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy omillar va qarama-qarshiliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, iqtisodiy o‘shish, makroiqtisodiy barqarorlik.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF INVESTMENTS IN THE NATIONAL ECONOMY AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF ECONOMIC GROWTH

Abstract. The strategy «Uzbekistan-2030» defines the tasks of ensuring macroeconomic stability in the country, maintaining high rates of economic growth, and bringing the country into the fifty strongest innovatively developed countries in the period up to 2030. All these circumstances require a special approach to foreign investment issues in order to ensure economic growth. Based on this, this article examines the issues of attracting foreign investment into the national economy, improving the investment climate, and analyzes the main factors and contradictions in attracting foreign investment.

Keywords: national economy, investments, foreign investments, investment attractiveness, investment climate, economic growth, macroeconomic stability.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В НАЦИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ И ИХ ВЛИЯНИЯ НА КАЧЕСТВО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Аннотация. В стратегии «Узбекистан-2030» определены задачи по обеспечению макроэкономической стабильности в стране, поддержанию высоких темпов экономического роста, выведению страны в пятьдесят сильнейших инновационно развитых стран в период до 2030 года. Все эти обстоятельства требуют особого подхода к вопросам иностранных инвестиций с целью обеспечения экономического роста. Исходя из этого, в данной статье рассмотрены вопросы привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику, улучшения инвестиционного климата, проанализированы основные факторы и противоречия в привлечении иностранных инвестиций.

Ключевые слова: национальная экономика, инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, инвестиционный климат, экономический рост, макроэкономическая стабильность.

Kirish. Respublikamizda investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada jadallashtirish maqsadida investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda boshqa qator funktsional vazifalarni bajaruvchi maxsus fakultativ jamg'armani tashkil qilish va uni xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalariga xos bo'lgan trast boshqaruv tizimi (Ishonchli boshqaruv) orqali faoliyatini samarali tashkil qilish "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi"ning 3.2-yo'nalishida "Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsiya jamg'armalari, innovatsiya banklari, venchur jamg'armalari) tashkil etish" maqsad sifatida belgilab olingan.

Fikrimizsha, davlat investitsiya dasturining manzilli ro'yxatiga kiritilayotgan investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslanganligi, ularning yuqori qo'shilgan qiymatni innovatsion mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi va loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlariga to'liq javob berishini baholovchi va moliyalashtiruvchi maxsus institut shakllantirilishi lozim. Bugungi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning noan'anaviy turlarini milliy iqtisodiyotimizga keng joriy etishda islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida mujassam etgan usullarni qo'llash taqozo etilmoqda.

Tahlil va natijalar.Iqtisodiy o'sish manbalari va asosiy omillarining tahlili iqtisodiyot tuzilmasini tizimli va bosqichma-bosqich yangilab borilishi, iqtisodiyotga keng ko'lamli investitsiyalarni amalga oshirish va, shuningdek eksport salohiyatini jadal rivojlantirish evaziga iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlari ta'min etilayotganligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida eskirgan asosiy vositalar va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish tarmoqlardagi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Modernizatsiya qilingan tarmoqlardagi energiya samaradorligi ko'rsatkichining yaxshilanishi natijasida asosiy vositalar ekspluatatsiyasi va xizmat ko'rsatishiga harajatlarning kamayishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, shuningdek, kam energiya sarfi tufayli moliyaviy mablag'larning tejalishiga hamda iqlim o'zgarishlari asoratlarini yumshatishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar yaqin va o'rta istiqbolda mamlakat yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarish sur'atiga ijobiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham YaIM va investitsion faollik ko'rsatkichlari o'zgarishi o'rtasida to'g'ri korrelyatsion bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. ICOR (incremental kapital output) o'tgan yilgi yalpi investitsiyalarni

YaIMning o'sishiga ta'sirini ko'rsatuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Bu quyidagicha hisoblanadi:

$$ICOR = \frac{I_{n-1}}{\Delta GDP_n} \quad (1)$$

Bu yerda:

I_{n-1} - hisobot yilidan oldingi yildagi yalpi investitsiyalarning YaIMdagi salmog'i;

$\Delta YaIM_n$ - n yildagi yalpi mahsulot o'tgan yilga nisbatan real o'sishining nominal miqdori.

Ushbu ko'rsatkichni iqtisodiy rivojlanishga investitsion faollikning ta'siri kontekstida tahlilini ko'rib chiqamiz.

2005-2020 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida kapital sig'imi darajasini ifodalaydigan ICOR koeffitsiyenti energiya tashuvchi tarmoqlarga yirik investitsiya resurslarining jalb

qilinganligi sababli 3,1 dan 4,7 darajaga o'sdi. Tadqiq etilgan davrda Buxoro viloyatida (ICOR koeffitsiyenti 2,4 dan 31,4 ga), Navoiy (9,3 dan 20,7 ga), Qashqadaryo (4,6 dan 13,7 ga), Jizzax (2 dan 10,6 ga) viloyatlari iqtisodiyotida kapital talab qilish darajasi salmoqli oshgan bo'lsa, Xorazm (7,5 dan 4,5 ga) viloyati va Toshkent shahrida (7,3 dan 4,3 ga) ishlab chiqarishning kapital sig'imi kamaygan[1].


Mamlakatning energiya samaradorligini ko'rsatuvchi muhim sifat ko'rsatkich - yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichidir. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imi so'nggi yillarda keskin kamayib borayotgan bo'lsada, bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlaridan hamon ancha pastligicha qolmoqda. "Iqtisodiyotimizning birlamchi energiya iste'moli (yoki energiya balansi) 1997-2017 yillar davomida 48,8 mln. t.n.e. dan 52,7 mln. t.n.e. ga oshgan. Energiya samaradorligini ko'rsatuvchi 1 kg.n.e. ga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot qiymati 2017 yilda 37870 so'mni tashkil etgan (5 AQSh doll.)"[2]. "Bu ko'rsatkich Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2015 yilda 1995yildagi 5,8 AQSh dollaridan 8,3 AQSh dollariga oshgan"[2]. YaIMning energiya sig'imi Yevroittifoqning Daniya, Italiya, Birlashgan Qirollik, Germaniya kabi mamlakatlarida eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, Serbiya va Islandiya davlatlarida bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, O'zbekiston YaIM energiya sig'imi ko'rsatkichiga qaraganda 2 barobardan ko'proq qiymatga ega.

Bugungi kunda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti energiya sig'imi ko'rsatkichi Yevroittifoqning umumiy ko'rsatkichidan qariyb 1,7 barobarga ortiqligi mamlakatimizda yaqin kelajakda energiya resurslaridan samarali foydalanishning yetarlicha imkoniyatlari borligini ko'rsatadi. Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyoti dunyo bo'yicha energiya sig'imi eng yuqori bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Xususan, O'zbekistonning YaIM energiya sig'imi ko'rsatkichi qo'shni mamlakat Qozog'iston ko'rsatkichidan 35% ga va Germaniya ko'rsatkichidan 3 barobarga ortiq.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarida eskirgan asosiy vositalar ulushining ko'pligi hisobiga mamlakat umumiy energiya iste'molining 40% sanoat tarmoqlari iste'moliga to'g'ri keladi.

Jahon banki tomonidan O'zbekistonda sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish uchun 200 mln AQSh. doll. hajmida investitsiya mablag'lari yo'naltirildi. Bu investitsion mablag'lar hisobidan O'zbekiston iqtisodiyotining energiya sig'imini 2030 yilga borib 50% ga qisqartirish prognoz qilinmoqda[3].




1-rasm. Makroiqtisodiy samaradorlik indikatorlari dinamikasi [4]

Milliy iqtisodiyotda investitsiyalardan samarali foydalanishning sifat ko'rsatkichlaridan mehnat unumdorligi, material va energiya qaytimi ko'rsatkichlarining sezilarli darajada o'sganligi YaIMning o'sish manbalari tarkibida intensiv omillarning o'zni tobora oshib borayotganligini ko'rsatadi. Uning YaIMning o'sishiga qo'shgan hisssasi 50 foizdan ko'proqni tashkil etgani holda, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash borasidagi keng qamrovli dasturlarning amalga oshirilishi kapital omili hissasining (24 %) ortishiga olib keldi. "Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida sifat ko'rsatkichlardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotda energiya resurslari sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, umuman olganda energiya samaradorligini oshirish ustuvor masalalardan biri sifatida qolmoqda".

Makrodiagnostik tahlillarga asosan iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning oldingi yillardagi asosiy manbalaridan biri bo'lgan markazlashgan resurslar imkoniyatlarining cheklanib borishi xususiy, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini keskin oshirishni taqozo etmoqda. Xususan, o'tgan yillarda iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish asosan markazlashgan resurslar hisobiga bo'lganligi o'z aksini so'nggi yillardagi tashqi qarz dinamikasi ko'rsatmoqda.

So'ngi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan faol investitsion siyosat ta'sirida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi keskin ortib bormoqda. Xususan, 2014-2021 yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb 2,5 barobarga ortdi. Mazkur davrda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 50 foizdan yuqori ko'rsatkichni qayd etadi (2-rasm).



1-rasm. 2014-2021 yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zgarish sur'ati [5]

Istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish, investitsiya va biznes forumlar, taqdimotlar («Road Show») va marketing kampaniyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni tashkil etish asosiy yo'nalishlar sifatida qayd etiladi. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni

taqsimlashda cheklashlar va iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishda investitsiyalarni rag'batlantirish, xususiyl mulkni dahlsizligi kafolatlarini mustahkamlashda davlatning rolini oshirish maqsadga muvofiq.

1-jadval

O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi[5]

Hududlar nomi	Yillar						
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Respublika bo'yicha jami	44810,4	51232,0	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	244962,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6021,2	3778,3	2822,0	6757,8	8750,6	7089,8	7879,1
Andijon viloyati	1956,5	2188,5	2986,0	4711,9	7452,1	9622,6	12143,7
Buxoro viloyati	4075,9	5922,9	11613,4	9610,9	10366,6	12183,9	18995,6
Jizzax viloyati	1304,9	1449,7	1788,2	3606,3	7900,9	12545,4	13224,4
Qashqadaryo viloyati	5894,7	7304,4	11175,3	16518,5	24462,5	20557,6	16225,1
Navoiy viloyati	1809,1	2963,2	3977,9	10579,5	17646,3	15688,4	16309,1
Namangan viloyati	2227,5	2824,5	3586,7	8158,1	12084,9	12007,2	13302,4
Samarqand viloyati	3237,2	3623,5	4384,2	7061,4	10266,7	14656,4	17722,8
Surxondaryo viloyati	1843,6	2142,4	3551,0	7240,6	11835,1	10068,2	11326,5
Sirdaryo viloyati	1083,3	1322,9	1628,0	2699,3	5869,1	7191,9	8708,0
Toshkent viloyati	4428,1	4238,7	5938,4	11226,9	20353,9	21148,6	27822,4
Farg'ona viloyati	2542,3	2643,6	2954,5	5539,1	8685,4	11040,0	12920,6
Xorazm viloyati	1531,5	1560,5	2175,9	3013,8	5032,0	5391,8	8580,3
Toshkent shahri	6854,6	9268,9	13573,7	26435,7	42458,1	50371,3	57611,3

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda 2015 yilga nisbatan hududlarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmini pandemiya ta'sirida qaramasdan o'sib borganini kuzatishimiz mumkin, bu ko'rsatkich asosan Toshkent shahri, Xorazm, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida xorijiy investitsiya va kreditlarning ko'payishi natijasida vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin.


2-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar[6]

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	Markazlashgan investitsiyalar	Markazlashmagan investitsiyalar
Investitsiyalar hajmi 269 857,5 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 100,9 % Ulushi 100 %	Investitsiyalar hajmi 41 436,4 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 80,4 % Ulushi 15,4 %	Investitsiyalar hajmi 228 421,1 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 105,8 % Ulushi 84,6 %

Respublika byudjeti	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Investitsiyalar hajmi 20 910,1 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 84,4 % Ulushi 7,8 %	Investitsiyalar hajmi 2 873,6 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 92,0 % Ulushi 1,1 %	Investitsiyalar hajmi 2 470,8 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 73,5 % Ulushi 0,9 %
Kafolat ostidagi xorijiy kreditlar	Korxonalar mablag'lari	Aholi mablag'lari
Investitsiyalar hajmi 15 181,9 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 74,9 % Ulushi 5,6 %	Investitsiyalar hajmi 84 516,0 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 110,6 % Ulushi 31,3 %	Investitsiyalar hajmi 25 738,1 mlrd. So'm 2021 yilga nisbatan 103,2 % Ulushi 9,5 %
To'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Korxonalar soni
Investitsiyalar hajmi 97 037,6 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 104,3 % Ulushi 36,0 %	Investitsiyalar hajmi 21 129,4 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan 98,7 % Ulushi 7,8 %	Yirik tashkilotlar 3 650 ta Kichik biznes (Investitsiya dasturi doirasidagi loyihalar ijrochilari) 1 910 ta


O'z navbatida, tahlil etilgan davr mobaynida barcha hududlarda xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish dinamikasi 2017 yildan keyingi yillarda keskin o'sib borish tendentsiyasi boshlanganini namoyon etadi.



3-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, trln. so'm [5]

Asosiy kapitalga investitsiyalar - yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. So'nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 4 martaga ko'payib, o'sish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 269,9 trln. so'm investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, 2021 yilga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi.

Investitsion faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini ta'minlash jarayoni investitsion faoliyatni amalga oshirishning ma'lum shakliga ustuvorlik berishni talab etadi. Investitsion imtiyozlar, uning natijalari, investitsiya muhitining jalb etilayotgan investitsiya hajmiga ta'siri kabi qator holatlar investitsion faoliyatni amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shakliga ustuvorlik berish zaruriyatini yuzaga keltiradi[7].



4-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da[6]

So'nggi yillardagi ularning o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2019 yilgacha o'sib borgani va 138,1 % ga yetgani, 2020 yilda keskin tushgani - 95,6 % hamda hozirgi davrgacha yana o'sish tendentsiyasiga ega bo'layotganini ko'rish mumkin - 100,9 %.

3-jadval

O'zbekiston hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni va dinamikasi[5]

Hududlar nomi	Yillar						
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Respublika bo'yicha jami	4 804	5 008	5 517	7 560	10 382	11227	13089
Qoraqalpog'iston Respublikasi	50	67	76	121	155	168	178
Andijon viloyati	121	154	172	222	299	359	378
Buxoro viloyati	79	81	91	156	274	310	324
Jizzax viloyati	69	70	82	121	181	214	224
Qashqadaryo viloyati	44	46	54	85	192	225	237
Navoiy viloyati	58	62	60	109	209	243	232
Namangan viloyati	82	87	103	138	220	265	283
Samarqand viloyati	240	246	280	396	508	602	636
Surxondaryo viloyati	58	56	57	172	350	458	515
Sirdaryo viloyati	63	68	85	109	157	184	185
Toshkent viloyati	516	538	583	851	1 153	1 335	1405
Farg'ona viloyati	145	154	199	281	415	465	510
Xorazm viloyati	29	6	51	71	140	185	195
Toshkent shahri	3250	3343	3624	4728	6 129	7 226	7787


Shuningdek, ko'plab davlatlar, shu jumladan, rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi texnologiyalarning kirib kelishi

orqali yalpi unumdorlikni oshirish va milliy iqtisodiyotimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ortib borishi orqali iqtisodiy salohiyatni tiklashga xizmat qilishini namoyon etmoqda.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2021 yilga nisbatan 3,8 % punktga kamayib, 15,4 % ni yoki 41,5 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 84,6 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi.

Shu bilan bir qatorda "O'zbekistonning 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-4563-son, 09.01.2020 y.) qabul qilindi. Qaror bilan O'zbekistonning 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, quyidagilar nazarda tutilgan:

- 850,5 trln so'm investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish;
- 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratish.




5-rasm. Yillar kesimida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da[6]

2022 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 15,2 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 74,9 % ni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa 2,0 % punktga kamayib, 5,6 % darajasida qayd etildi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,5 trln. so'mni (dollar ekvivalentida 223,6 mln. AQSh dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2021 yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 0,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg'arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2021 yilga nisbatan 73,5 % ni tashkil etdi.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari:

- Quyuv-prokat majmuasini qurish;
- Shovot-Qorao'zak temir yo'l liniyasini hamda Amudaryo ustidan o'tuvchi temir yo'l va avtomobil yo'li qo'shma ko'prigini qurish;
- Toshkent shahrida yer usti halqa metropolitenini qurish (II bosqich).



6-rasm. Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da[6]

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021 yilga nisbatan 84,4 % ni yoki 20,9 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan investitsiyalar 2021 yilga nisbatan 92,0 % ni, 2,9 trln. so'mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,1 % punktga kamayib, 1,1 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar - 84,5 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 31,3 % ini tashkil etdi. Bevosita to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 37,0 trln. so'm, yoki 2021 yilga nisbatan 1,2 % punktga ko'paygan holda jami ulushi 13,7 % ga teng investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, 2021 yilga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 60,0 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi:

- Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasini qurish;
- Sirdaryo viloyatida quvvati 220 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish;
- 2017-2021 yillarda uglevodород xom ashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha Dastur;
- 2021-2022 yillarda respublika magistral gaz uzatish tizimini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish dasturi;
- Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish;
- Buxoro viloyatida quvvati 270 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish;

➤ “Mustaqillikning 25 yilligi” konida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish va konni o‘zlashtirish, gaz-kimyoo kompleksini qurish;

➤ Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish;

➤ Quruq tsianid tuzlari ishlab chiqarishni tashkil etish.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan 21,1 trln. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,8 % ini tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 0,2 % punktga kamayish) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 % i yoki 25,8 trln. so‘m o‘zlashtirildi. Aholi mablag‘lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan.

REFERENCES

1. qishloq_xozhalik_mahsulotlari_etishtirishda_aholining_bank_xizmatlariga_bolgan_ehtiyo_zhlarini_tahlil_qilish_va_qondirish_.pdfhttp://library.ziyonet.uz
2. National Energy Efficiency Action Plans and Annual Reports. // European commission, The European Bank for Reconstruction and Development, European Investment Bank.
3. <http://www.iea.org/publications/freepublications/publication/energy-efficiency-market-report-2014.html>.
4. Сухарев О.С., Шманев С.В., Курьянов А.М. Экономическая оценка инвестиций. – М.: ИНФРА-М, 2006г.
5. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari.
6. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. 2022 yil yanvar-dekabr, Toshkent 2023 y.
7. Abduvaxidov A., Xajimuratov A., Obidov R., Eshpo‘latov D. Xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilishda mahalliy hokimliklar faoliyatini baholash. Analytical Journal of Education and Development, Volume: 02 Issue: 10 | Oct-2022 ISSN: 2181-2624, 20-24 b.
8. Абдувохидов, Акмал Абдулазизович. "САНОАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.5 (2022): 40-45.
9. Халимжонов Д. Э., Абдувохидов А. А. ЎЗБЕКИСТОНДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИТОРЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР //ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ. – 2021. – Т. 4. – №. 1.
10. Khakimova, M. Kh. (2021). USING THE “BRAINSTORMING” METHOD IN TEACHING SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS. *Bulletin of Science and Education*, (6-3 (109)), 56-61.
11. Rakhimov, D., Juliev, M., Agzamova, I., Normatova, N., Ermatova, Y., Begimkulov, D., ... & Ergasheva, O. (2023). Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386). EDP Sciences.